

**NOLISONIY VOSITALAR VA IJTIMOIIY YUZ
NON-LINGUISTIC MEANS AND FACE
НЕЯЗЫКОВЫЕ СРЕДСТВА И СОЦИАЛЬНОЕ ЛИЦО**

Nurmatova Munisxon Mashrabovna¹

*¹Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy yuzni saqlash va unga putur yetkazuvchi harakatlarda nolisoniy vositalarning ta'siri o'rganiladi.*

Annotation: *This article explores the effects of nonlinguistic means in face saving and face threatening acts.*

Аннотация: *В этой статье исследуется влияние нечеловеческих средств на сохранение социального лица и подрывные действия.*

Kalit so'zlar: *paralingvistika, muloqot, ijtimoiy yuz, ijtimoiy yuzni saqlash, ijtimoiy yuzga putur yetkazish, nolisoniy vositalar, verbal vositalar.*

Keywords: *paralinguistics, communication, face (social image) face saving acts, face threatening acts, non-verbal cues, verbal tools.*

Ключевые слова: *паралингвистика, общение, социальное лицо, социальное сохранение лица, социальное подрыв лица, невербальные средства, вербальные средства.*

KIRISH. Inson tabiati shundayki, u doim jamiyatda, insonlar o'rtasida o'z hurmatini, o'z "yuz"ini saqlashga intiladi. Bu turli holatlarda – kiyinish, o'zini tutish, o'zgalar oldida odob saqlash, xushmuomalalik bilan muloqot qilishda ham namoyon bo'ladi. Inson muloqotda o'zining va suhbatdoshining hurmatini, "yuz"ini saqlashga intilishda muloqot qoidalariga, strategiyalariga amal qiladi.

Muloqot jarayonida paralingvistik vositalardan keng foydalaniladi. Bu jarayon badiiy asarlarda ham o'z aksini topadi, ya'ni paralingvistik vositalar ham ifoda etiladi. Chunki har qanday inson muloqot jarayonida lingvistik vositalar bilan fikr ifodalasa ham, nolisoniy vositalarni ham, albatta, qo'llaydi. Paralingvistik vositalar, eng avvalo, milliy ruh va urf-odatlar bilan bog'lanadi, unda nutq odobi va madaniyat belgilari ham o'z aksini topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Prosodik vositalar tarkibiga melodika – ohang, urg'u, temp, pauza, tembr kabi intonatsion vositalar kiradi va ular muloqotda ijtimoiy yuzni saqlashda ham qo'llaniladi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

Melodika intonatsiyaning asosiy va yetakchi tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ovozning asosiy ton harakatidir. Intonatsiyaning melodik harakati tekis, ko'tariluvchi va pasayuvchi tonlardan iborat bo'lib, u gapning kommunikativ turini aniqlashda asosiy o'rin tutadi¹.

Muloqotda suhbatdoshning baland, past ovoz bilan so'zlashi bilan bir qatorda ohangning ko'tarilib, pasayishi ham ahamiyatlidir. Bu holat nutqda bevosita tonning ko'tarilishi va pasayishi orqali namoyon bo'lsa, badiiy asarlarda lisoniy vositalar orqali ifoda qilinadi.

Temp nutqning tezligini bildiradi. Nutq tez, sekin yoki me'yoriy templarda irod etilishi mumkin. "Nutq tempi muloqot jarayonida nutq birliklariga sarflangan vaqt miqdori bilan belgilanadi. Nutqqa sarflangan vaqt miqdori qancha ko'p bo'lsa, nutq tempi shuncha sekin bo'ladi. Aksincha, nutqqa sarflangan vaqt miqdori qancha oz bo'lsa, nutq tempi shuncha tez bo'ladi"².

Nutq tempi ham ijtimoiy yuzni saqlash yoki unga putur yetkazishda rol o'ynashi mumkin. Suhbatdoshni tinglashni istamaslik, suhbatni tezroq tugatish istagi so'zlovchidan tezroq so'zlashni talab qilishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, ijobiy yuzga putur yetkazadi. Yoxud tinglovchi tushunishi, qabul qilishini istab fikrni sekin, dona-dona qilib ifodalash ham mumkin. Bunda ijobiy yuzni saqlash nazarda tutiladi. Demak, temp yordamida ijtimoiy yuzga putur yetkazish yoki uni saqlash ham mumkin.

Pauza ham nutq tempi bilan o'zaro bog'lanuvchi vosita sanaladi. Muloqot jarayonida pauzalarning o'rin olishi ham ijobiy va salbiy yuzga putur yetkazish yoxud ijtimoiy yuzni saqlash vazifasini bajarishi mumkin. O'zbeklarda nutqning davomiy bo'lishi, to'xtalishlarsiz, bir tekisda ketishi me'yor hisoblanadi. Suhbatdosh biroz pauza olsa, tinglovchi noqulay ahvolga tushib qolishi mumkin. Ingliz madaniyatida esa pauzalar tabiiy sanalib, suhbatdoshning o'ylanayotgani, kerakli, o'rinli lisoniy ifodalarni qo'llash uchun nutqini to'xtatgani tabiiy deb baholanadi. Demak, pauzalardan foydalanishda o'zbek xalqida ijtimoiy yuzga putur yetkazilsa, ingliz madaniyatida ijtimoiy yuzga putur yetkazilmaydi.

NATIJAR VA MUHOKAMA. Kinetik vositalar tarkibiga esa tana tili, tanaga oid harakatlar, qo'l, yuz harakatlari kiradi. "Kinesika imo-ishoralar haqidagi fandır. Kinetik vositalar vizual kanal sistemasiga taalluqli bo'lib, u so'zlashuvchilar muloqotida vizuallik belgisiga ega bo'ladi. Kinetik vositalarga ifodalilik, tana a'zolari harakati – jestlar, yuz harakati bilan bog'liq – mimika, kommunikantlar muloqotida

¹ Газиева М. Просодика. –Тошкент: Akademnashr, 2019. –Б.54.

² Газиева М. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Фил.фан.фалсафа доктори (PhD) дисс...автореф. –Тошкент, 2018. –Б.18.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

ro'y beruvchi individual harakat (yurish-turishdagi o'ziga xoslik yoki xos harakatlar) kabilar mansubdir"³.

1. Imo-ishoralar. "Imo-ishora fikrni ifoda etish yoki gapirish jarayonining bir qismi sifatida ko'riladigan har qanday aniq faoliyatdir. Bu faoliyat kommunikativ funksiyaga ega bo'lishi kerak"⁴.

Imo-ishoralar yordamida muloqotda ijobiy yuz – qabul qilinish ham, salbiy yuz – masofani saqlash ham ifodalanishi ham mumkin. Shuningdek, imo-ishoralar bilan FTA – ijtimoiy yuzga putur yetkazuvchi harakatlar ham amalga oshirilishi mumkin.

2. Bosh harakatlari. Bosh harakatlari asosan ijobiy yuzni saqlashda qo'llaniladi. Bosh harakatlari – boshni irg'ash yordamida ma'qullash, ijobiy yuzni saqlash – suhbatdoshni qabul qilish yoki boshni chayqatish yordamida rad etishni ko'rsatish orqali unga putur yetkazish – qabul qilmaslik aks etishi mumkin.

Bosh silkish orqali hamsuhbatning fikriga qo'shilish, ma'qullash, uning qarashlarini qo'llab-quvvatlash orqali ijobiy yuzni saqlash mumkin:

... – *Nima bo'ldi? – dedim dovdirabroq.*

Guli kresloga o'tirarkan, qoshini chimirdi.

– *Mana, sizlar eskilik sarqitini yo'qotish kerak, u-bu deb yozasiz, to'g'rimi?*

Indamay bosh silkidim (O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari").

Ko'plab madaniyatlarda ushbu harakatlar universal sanalib, yuqoridagi ma'noni aks ettirsa ham, ayrim madaniyatlar bundan mustasno. Masalan, Bolgariyada buning teskarisi – boshning vertikal harakati "yo'q", gorizontal harakati "ha" degan ma'noni anglatadi⁵.

3. Ko'z harakatlari ham muloqotda ahamiyatlidir. Ko'z qarashlari orqali suhbatdoshga nisbatan qiziqish, e'tibor, diqqat, g'azab, norozilik kabi hissiyotlar ifodalanishi mumkin. Ko'z harakatlari ijobiy va salbiy ijtimoiy yuzni saqlashda quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

a) muloqotda so'zlovchi va tinglovchining muloqotga kirishishga tayyor ekanliklarini ko'rsatish;

b) ko'zlar harakati, nigohlar orqali suhbatdoshning hissiyotlarini anglash;

c) muloqotda tinglovchi so'zlovchini tinglayotganini bildirish;

d) suhbatdoshda ijobiy hissiyotlar uyg'otish, masalan, tinglovchi so'zlovchini eshitayotganini, uni qabul qilayotganini, ijobiy munosabatlarini ko'z qarashlari orqali ifoda etishi mumkin.

³ Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... –Фарғона, 2022. –Б.53.

⁴ Kendon. A. Geography of Gesture, Semiotica, 37. – Cambridge, 1981. – P.134.

⁵ Andonova E., Holly A.Taylor. Nodding in dis/agreement: a tale of two cultures// https://www.researchgate.net/publication/230746254_Nodding_in_disagreement_a_tale_of_two_cultures

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

Shu bilan birga, ko'z qarashlari orqali ham FTA – ijtimoiy yuzga putur yetkazuvchi harakatlar amalga oshirilishi mumkin. Suhbat davomida atay ko'zini olib qochish, boshqa joyga qarash tinglovchining suhbatdoshni qabul qilmayotganini bildirishi, bu orqali so'zlovchini noqulay vaziyatga solib, ijobiy yuzga putur yetishi mumkin.

Bundan tashqari, o'ta o'tkir nigohlar orqali salbiy yuzga ham putur yetkazilishi mumkin. Suhbatdoshga o'ta qattiq tikilish, termulib qarash suhbatdoshning salbiy yuziga putur yetkazishi ham mumkin.

4. Haptika – muloqotda jismoniy tegishni anglatuvchi ta'limot. Ushbu ta'limotga ko'ra, suhbatdoshga jismoniy tegish muloqotda turli maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

a) xizmat vazifasi yuzasidan, professional maqsadlarda – shifokor yoxud xavfsizlik xizmati vakillari tomonidan tanaga tegish shu maqsadda amalga oshiriladi;

b) ijtimoiy-siyosiy maqsadlarda – qo'l siqib ko'rishish, do'stona suhbatdoshning yelkasiga urish kabilar ijtimoiy yoki siyosiy maqsadlarda, ijtimoiy etiket me'yorlaridan chetga chiqmagan holda amalga oshiriladi;

c) do'stona munosabatlarda, yaqinlikni ifodalovchi quchoqlash, yelkaga qo'l tashlash kabi harakatlar.

Sanab o'tilgan haptiklarning barchasi ham suhbatdoshning kimligi, yaqinlik darajasiga ko'ra amalga oshirilishi lozim, aks holda suhbatdoshning salbiy yuziga putur yetkaziladi:

*Dalavoy ruchkani yana muzlagan siyohdonga botirgan edi, onam uning **qo'liga yopishdi**:*

– Yozmang, jon ukam, yozmang, rahmingiz kelsin.

Dalavoy ijirg'anib, qo'lini siltab tortdi. Kulrang ko'zlari qisilib ketdi.

– Torting qo'lingizni! – dedi shiddat bilan (O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari")

Bu yerda Dalavoy rasmiy xodim sifatida ish olib boradi, ayol esa uning qo'liga tegish orqali uning daxlsizligiga putur yetkazadi, bu esa salbiy yuzga putur yetkazuvchi harakat sanaladi. Aslida asarda Dalavoy begona emas, ayolga tanish inson bo'ladi, biroq amalga ko'tarilgach, o'zini rasmiy xodim sifatida tutib, ayolning qo'liga tegishini o'zining daxlsizligiga putur yetishi, deb hisoblaydi.

Bunday vositalar orqali o'zbek xalqiga xos lingvomadaniy xususiyatlarning namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. O'zbek xalqida begonalarni ham yaqin olish, notanish insonlar bilan ham qo'l berib ko'rishish mumkin, bunda salbiy yuzga deyarli e'tibor berilmaydi. Begona inson siz bilan qo'l berib ko'rishib, keyin biror manzilni aytib berishingizni so'rashi ham mumkin.

Ingliz madaniyatida esa notanish insonlarning teginishi ularning shaxsiy hududiga daxlsizlik sanaladi, bu bilan salbiy yuzga putur yetkaziladi. Demak, ingliz xalqida

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

salbiy yuzga putur yetkazmaslik muhim sanalsa, o'zbek xalqida bu u qadar ham ahamiyatli emas.

5. Proksemika muloqotda o'zaro jismoniy masofani saqlashni anglatadi. O'zaro yaqinlik ijtimoiy masofa orqali ham ifodalanishi mumkin. Bu orqali salbiy yuz saqlanishi yoki unga putur yetkazilishi mumkin.

Amerikalik antropolog va madaniyatlararo tadqiqotchi Eduard Twitchel Hall proksemiksni to'rtta zonaga bo'lib tasniflaydi⁶. Bu zonalar – intim, shaxsiy, ijtimoiy va ommaviy zonalardir.

Intim zona eng yaqin oila a'zolari, do'stlar uchun mo'ljallangan hudud bo'lib, 1,5 feetgacha bo'lgan masofani bildiradi. Bu taxminan 45-46 santimetrgacha bo'lgan hududni anglatadi.

Shaxsiy zona – 1,5 – 4 feet (46 sm – 1 metr 22 sm) masofani o'z ichiga oluvchi, do'stlar, yaqin tanishlar uchun mo'ljallangan hudud.

Ijtimoiy zona 4-12 feet (1 metr 22 sm – 3 metr 66 sm) masofani bildiradi, bunday masofada professional maqsadlarda muloqot amalga oshiriladi.

Ommaviy zona 12-25 feet masofani o'z ichiga oladi, muloqotda bunday masofadan so'zlovchi o'zining yuqori mavqeini, qudratini namoyish qilish uchun foydalanadi.

Sanab o'tilgan zonalar muloqot maqsadiga ko'ra farqlanib, bu zonalarga ahamiyat bermaslik, o'zaro masofani saqlamaslik salbiy yuzga putur yetkazadi.

G'arb olimlari tomonidan bunday tasnifning amalga oshirilganining o'ziyoq ularda shaxsiy hudud, shaxsiy hududga daxl qilmaslik tushunchalarining muhimligini anglatadi. O'zbek madaniyatida esa bu u qadar ham ahamiyatli emas, notanish insonning yoniga kelib ham muloqot qilish mumkin, faqat bu erkak/ayol jinsiga mansubligida farqlanadi. O'z jinsi vakilining yaqin kelishi tabiiy sanalgani holda, o'zga jins vakilining yaqin kelishi odobsizlik sanaladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy yuzni saqlash yoki putur yetkazuvchi harakatlar nafaqat lisoniy vositalar orqali, balki nolisoniy vositalar yordamida ham amalga oshiladi. Nolisoniy vositalar inson muloqotini yanada chuqurroq anglash, o'rganish imkoniyatini taqdim qiladi.

⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Edward_T._Hall

ADABIYOTLAR:

1. Andonova E., Holly A. Taylor. Nodding in dis/agreement: a tale of two cultures// https://www.researchgate.net/publication/230746254_Nodding_in_disagreement_a_tale_of_two_cultures
2. Akbarova, Q., & Nurmatova, M. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA "OG'IZ" SO'ZI ORQALI IFODALANGAN FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING STRUKTURAL-GRAMMATIK XUSUSIYATI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(5 Part 2), 92-95.
3. Акбарова, Қ., & Нурматова, М. (2023). СОМАТИЗМ ТУШУНЧАСИ ВА «ОФИЗ» СЎЗИ ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАДҚИҚИ. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 75-77.
4. A'zamjonovna, Y. S. Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili) 2-bosqich magistranti Nurmatova Munisxon Mashrabovna Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi. *MATERIALLARI TO'PLAMI*, 32.
5. Azamovna, M. N., & Mashrabovna, N. M. (2023). THE VERBALIZER "GUEST" AS A REFLECTION OF THE PECULIARITIES OF THE WORLD PICTURE OF THE ENGLISH PEOPLE. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 12, 104-106.
6. Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Burkhardt A. *Speech acts, meaning and intentions: Critical approaches to the philosophy of John R. Searle*. –Berlin/New York. 1990. ISBN 0-89925-357-1.
8. Бутовская М.Л. *Язык тела: природа и культура (эволюционные и кросс-культурные основы невербальной коммуникация человека)*. – Москва: Научный мир, 2004. – С.12.
9. Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингопоэтик тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... –Фарғона, 2022. –Б.53.
10. Газиева М. *Просодика*. –Тошкент: Akademnashr, 2019. –Б.54.